



YOSHLAR ONGI VA MIGRATSIYA JARAYONI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Ruzimova Nigina Muxamedovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Toshkent. O'zbekiston

niginaruzimova@35gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16741865>

ARTICLE INFO

Received: 21st July 2025

Accepted: 25th July 2025

Published: 31st July 2025

KEYWORDS

*yoshlar ongi, migratsiya
motivlari, ijtimoiy tarmoqlar
ta'siri, konstruktivizm,
psixologik ehtiyojlar*

ABSTRACT

Ushbu maqolada yoshlar ongi hamda migratsiya jarayonlari o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik konseptual jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston yoshlarining migratsion niyatlari va ongida yuzaga kelgan o'zgarishlarni o'rganish uchun 800 nafar 18–30 yoshdagi respondentlar bilan o'tkazilgan miqdoriy so'rovnomma va 20 nafar respondent bilan yarim tuzilgan intervyular natijalari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, migratsiyaga intilish ko'pincha iqtisodiy-sotsiologik omillar bilan bir qatorda yoshlarning shaxsiy motivatsiyalari, informatsion ta'sirlar va global madaniy oqimlardan olinayotgan ideal tasavvurlarga tayangan holda shakllanmoqda. Xususan, yoshlarning 72 % i ijtimoiy tarmoqlar va media orqali migrantlar tajribasiga asoslanib ongli migratsiya kontseptsiyasini qabul qilgani, 39 % i esa iqtisodiy omillarni asosiy sabab sifatida ko'rsatgan. Muhokamalarda Bandura, Berger & Luckmann, Maslow va Massey kabi nazariy yondashuvlar kontekstida natijalar konstruktiv va ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan izohlandi. Xulosa sifatida, yoshlar migratsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki psixologik-ijtimoiy va madaniy kontekstlarda ham talqin qilinishi lozimligi ta'kidlandi hamda davlat siyosatini yoshlar ongini shakllantirish, raqamli savodxonlik va identitetni mustahkamlashga yo'naltirish tavsiya etildi.

KIRISH. So'nggi yillarda global migratsiya jarayonlari insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, bu holat ayniqsa yoshlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning 2024-yildagi hisobotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 281 milliondan ortiq odam o'z yashash joyini tark etgan bo'lsa, ularning qariyb 40 foizini 15–29 yosh orasidagi yoshlar tashkil etadi. Bu ko'rsatkich yoshlar migratsiyaning asosiy subyektlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi. Migratsiya nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan izohlanadi, balki shaxsiy motivatsiya, qadriyatlar tizimi va ongdagi transformatsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, yoshlar ongi va migratsiya jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar ongining shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy institutlar – oila, maktab, universitet, OAV va internet orqali sodir bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, O'zbekiston

singari transformatsion bosqichdagi jamiyatlarda, yoshlarda mehnat migratsiyasiga bo'lgan qiziqish ko'proq iqtisodiy emas, balki o'zini namoyon qilish, mustaqillikka erishish, yangi dunyoqarashlar shakllantirish istagi bilan belgilanmoqda. Masalan, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, xorijga ishlash uchun chiqqanlarning 60 foizdan ortig'ini 18–35 yoshli yoshlar tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich, bir tomondan, iqtisodiy omillar ta'sirini ko'rsatsa-da, ikkinchi tomondan, yoshlar ongidagi ijtimoiy, madaniy va shaxsiy transformatsiyalarni ham ifodalaydi.

Yoshlar migratsiyaga qaror qilish jarayonida faqatgina iqtisodiy omillarni emas, balki o'zining kelajakdagi o'rni, o'zini anglash va rivojlantirish imkoniyatlarini ham hisobga oladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining keng tarqalganligi, ijtimoiy tarmoqlarda global hayot tarzi namoyon qilinishi, ko'plab muvaffaqiyatli migrant yoshlarning hikoyalari – bularning barchasi yoshlar ongida migratsiyani ijobiy hodisa sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu holat esa migratsiyani tahlil qilishda faqat makroiqtisodiy darajadagi sabablar bilan cheklanmasdan, yoshlar psixologiyasi, motivatsiyasi, identiteti va maqsadlar tizimi bilan bog'liq masalalarga ham e'tibor qaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston misolida olib qaralganda, davlat tomonidan yoshlar bilan ishlashga oid qator strategiyalar ishlab chiqilmoqda. “Yoshlar daftari”, “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi qonun, “Yoshlar ishlari agentligi” faoliyati shular jumlasidandir. Biroq, shunga qaramay, ko'plab yoshlar xorijga chiqishni o'zining rivojlanish yo'li sifatida ko'rmoqda. Bu esa yoshlar ongidagi milliy identitet, ijtimoiy adolat hissi, kelajakka bo'lgan ishonch kabi murakkab psixologik-ijtimoiy omillarni chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada yoshlar ongi va migratsiya jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni konseptual yondashuvlar orqali o'rganish, mavjud nazariy modellarga tayanib, O'zbekiston sharoitida bu hodisaning o'ziga xos jihatlarini yoritish maqsad qilingan. Mazkur tadqiqot nafaqat ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb, balki amaliyotda yoshlar siyosatini ishlab chiqishda muhim yo'nalishlar shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda yoshlar ongida shakllanayotgan ijtimoiy psixologik holatlar va ularning migratsiyaga nisbatan qarorlarida qanday rol o'ynayotganini aniqlash maqsadida aralash tadqiqot metodologiyasi (mixed-method approach) asos qilib olindi. Bunday yondashuv yordamida ikki asosiy yo'nalish – miqdoriy (quantitative) va sifatli (qualitative) usullar birgalikda qo'llanilib, har bir metodik yondashuv bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi vazifani bajardi. Bunday metod tanlovi yoshlar ongining ko'p qirrali, dinamik va murakkab tabiatini chuqurroq o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning miqdoriy bosqichi O'zbekistonning demografik, iqtisodiy va sotsiokulturn jihatdan farqlanuvchi 4 ta hududida – **Toshkent shahri** (*poytaxt, urbanizatsiya markazi*), **Andijon viloyati** (*chet elga migratsiya darajasi yuqori viloyat*), **Qashqadaryo viloyati** (*an'anaviy mehnat migratsiyasi manbai*) hamda **Samarqand viloyati** (*madaniy markaz*)da amalga oshirildi. Ushbu hududlar tanlanishida migratsion faoliyat darajasi, iqtisodiy rivojlanish, ta'limga kirish imkoniyati va yoshlar siyosatining ta'siri kabi omillar hisobga olindi.

So'rovnoma (survey) orqali 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 800 nafar respondent qamrab olindi. Respondentlarning 54% erkaklar, 46% ayollar bo'lib, ular orasida talabalar, ishchilar, ish topish harakatida bo'lganlar va xorijdan qaytgan yoshlar ham mavjud edi. So'rovnoma Google Forms platformasida yaratilgan bo'lib, u **20 ta asosiy savol** va **6 ta qo'shimcha demografik savollarni** o'z ichiga oldi. Savollar Likert shkalasi (masalan, “Mutlaqo rozi — Rozi — Betaraf — Qarshi — Mutlaqo qarshi”) asosida tuzildi. Savollarda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratildi: migratsiyaga bo'lgan shaxsiy munosabat, migratsiyaning sabablariga beriladigan baho, jamiyatdagi ijtimoiy tenglik hissi, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, milliy identitet va kelajakdagi hayotiy rejalarining ustuvorligi.

Sifatli tadqiqot bosqichi esa yarim tuzilgan intervyular asosida olib borildi. Ushbu intervyular 20 nafar yosh bilan (har bir respondent bilan 30–45 daqiqalik) amalga oshirildi. Intervyu ishtirokchilari avval chet elda bo'lganlar, hozirda migratsiya jarayonida bo'lganlar yoki hali migratsiyaga tayyorgarlik ko'rayotganlardan iborat edi. Ular orasidan har bir hududdan 5 nafardan ishtirokchi tanlandi. Savollar ochiq va ochiq-yopiq shaklda bo'lib, respondentlarning shaxsiy tajribasi, hissiyoti, jamiyatga bo'lgan munosabati, oilaviy qadriyatlari va kelajakka oid tasavvurlari o'rganildi. Intervyular transkripsiya qilinib, tematik kodlash orqali asosiy g'oyalar, motivatsiyalar va ongiy me'yorlar aniqlandi.

Tadqiqot davomida to'plangan miqdoriy ma'lumotlar SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturi orqali tahlil qilindi. Ushbu dastur yordamida deskriptiv statistika (o'rtacha qiymat, median, mod, dispersiya), korrelyatsion tahlil (Pearson va Spearman koeffitsientlari), regressiya tahlili va guruhlararo farqlarni aniqlovchi t-testlar bajarildi. Ayniqsa yoshlarning migratsiyaga bo'lgan munosabati bilan ularning ijtimoiy sharoitdan qoniqish darajasi, ta'lim darajasi, internetdan foydalanish chastotasi o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlandi.

Sifatli ma'lumotlar esa NVivo dasturiy ta'minoti yordamida tahlil qilindi. Har bir intervyu asosiy mavzular bo'yicha kodlanib, 7 ta asosiy tema ajratildi: 1) iqtisodiy motivatsiya, 2) shaxsiy rivojlanish istagi, 3) ijtimoiy tengsizlik hissi, 4) axborot ta'siri, 5) ijtimoiy bosim, 6) oilaviy qadriyatlar va 7) psixologik tayyorgarlik. Bu temalar asosida yoshlarning ongiy jarayonlari va migratsiyaga bo'lgan ichki-psixologik tayyorgarlik darajasi haqida chuqur tasavvur hosil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida ijtimoiy ong shakllanishiga oid klassik va zamonaviy nazariyalar tahlil qilindi. Jumladan, Piter Berger va Tomas Lukmanning "ijtimoiy konstruktivizm" yondashuvi asosida yoshlarning qarorlari qanday qilib ijtimoiy tajriba va kontekstda shakllanishi izohlandi. Shuningdek, A. Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasi modeli orqali migratsion qarorlar qaysi ehtiyojlar darajasida yuzaga kelayotganiga tahlil berildi. Albert Banduraning "O'z-o'zini anglash nazariyasi" (Self-efficacy theory) esa yoshlarning ichki ishonchi va tashqi imkoniyatlarga bo'lgan bahosini aniqlashda foydali bo'ldi.

Tadqiqot davomida etik tamoyillarga qat'iy rioya qilindi. Barcha respondentlarga tadqiqot maqsadi tushuntirildi, ularning roziligi olindi va ishtirok to'liq ixtiyoriy bo'ldi. Intervyu va anketalarda shaxsiy ma'lumotlar to'plamadi, ismlar shifrlangan holda saqlandi. Natijalar faqat ilmiy tahlil va statistik umumlashtirish uchun ishlatildi.

Umuman olganda, ushbu metodologik yondashuv yoshlarning migratsiya jarayonidagi faoliyatini nafaqat statistik darajada, balki psixologik, sotsiokultural, va ongiy holatlari bilan birga chuqur o'rganishga yo'l ochdi. Bu esa maqola davomida taqdim qilinadigan natijalarni chuqurroq tushuntirish va tahlil qilishga asos yaratdi (1-jadval).

1-jadval. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar, ularning tavsifi va vositalari

No	Tadqiqot metodi	Tavsifi	Maqsadi	Qo'llanilgan vosita/dastur
1	Miqdoriy tahlil (survey)	800 nafar yoshlar orasida onlayn va yuzma-yuz so'rovnoma o'tkazildi	Migratsiyaga munosabat, qadriyatlar, ijtimoiy holatlarni o'rganish	Google Forms, SPSS
2	Sifatli intervyular	20 nafar yosh bilan chuqurlashtirilgan yarim tuzilgan suhbatlar olib borildi	Ichki motivatsiya, identitet, hissiyot va tajribalarni tahlil qilish	Audio yozuv, NVivo
3	Tematik kodlash	Intervyular asosida 7 ta asosiy tema ajratildi	Sifatli ma'lumotlarni	NVivo

			strukturaviy tahlil qilish	
4	Korrelyatsion tahlil	Migratsiyaga qarash va demografik/sotsiologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi	O'zgaruvchilar o'rtasidagi statistik munosabatni aniqlash	SPSS (Pearson, Spearman testlari)
5	Nazariy asos (konstruktivizm)	Berger va Lukmanning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi asosida yondashuv	Ijtimoiy ong qanday shakllanishini izohlash	Ilmiy adabiyotlar tahlili
6	Ehtiyojlar modeli	Maslow ierarxiyasi asosida yoshlar ehtiyojlari tahlil qilindi	Migratsiya sabablarini psixologik asosda izohlash	Maslow modeli

NATIJALAR. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar yoshlar ongining migratsiyaga bo'lgan munosabatini chuqur yoritib berdi. Anketada qatnashgan 800 nafar respondentning 62 foizi migratsiyani "o'z kelajagini qurishdagi muhim imkoniyat" sifatida baholagan bo'lsa, atigi 17 foizi buni salbiy hodisa deb hisoblagan. Qolgan 21 foizi esa betaraf fikr bildirgan. Bu esa yoshlarning ongida migratsiya ijobiy ijtimoiy-hayotiy strategiya sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Miqdoriy tahlil natijalariga ko'ra, 18–24 yoshdagi ishtirokchilarning 68 foizi xorijga chiqish niyatida ekanligini bildirgan bo'lsa, 25–30 yoshdagilar orasida bu ko'rsatkich 51 foizni tashkil etdi. Bu yosh o'tishi bilan migratsiya istagi pasayishini, hayotiy barqarorlik va oilaviy majburiyatlarning kuchayishini anglatadi. Shuningdek, ayollar orasida migratsiya istagi erkaklarnikiga nisbatan 12 foizga pastroq ekani aniqlangan – bu ijtimoiy cheklovlar, xavfsizlik muammolari va madaniy me'yorlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yoshlarning migratsiyaga bo'lgan munosabati ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatlari bilan ham sezilarli darajada bog'liq ekani korrelyatsion tahlilda tasdiqlandi. Pearson korrelyatsiya koeffitsienti asosida aniqlanishicha, iqtisodiy ahvolidan norozi bo'lgan yoshlar (daromadi O'zbekiston bo'yicha o'rtacha yashash minimumidan past bo'lganlar) orasida migratsiyaga tayyorlik indeksi 0,73 (yuqori ijobiy bog'liqlik) ni tashkil etgan. Bu shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy muammolar – migratsiyaning asosiy tashqi omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Sifatli intervyular tahlilida esa migratsiyaga qaror berishda iqtisodiy sabablar bilan bir qatorda psixologik va ongiy omillar ham yetakchi rol o'ynayotgani ayon bo'ldi. Intervyu ishtirokchilarining aksariyati (85%) o'zini "jamiyatda to'liq namoyon eta olmayotgan", "imkoniyatlar cheklangan", "ijodiy va intellektual salohiyatidan foydalana olmayotgan" shaxs sifatida tasvirlagan. Ular migratsiyani nafaqat moliyaviy daromad, balki o'zini rivojlantirish, mustaqillik, o'zligini anglash vositasi sifatida ko'rmoqda. Bu holat yoshlar ongida "tashqi imkoniyatlar orqali ichki erkinlikka erishish" g'oyasi shakllanganini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan intervyular asosida 7 ta asosiy ijobiy mavzu ajratildi:

1. Moliyaviy erkinlik va oilaviy yordam berish istagi
2. O'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati
3. Jamiyatdagi adolatsizlik hissi
4. Qonunbuzarlik va korrupsiyadan charchaganlik
5. Global fikrlash va ochiq jamiyat orzusi
6. Mustaqil hayot boshlash istagi
7. Muvaffaqiyatli migrantlar misolida ilhomlanish

Yana bir muhim natija shuki, migratsiyaga tayyor yoshlarning 72 foizi o'z qaroriga ijtimoiy tarmoqlar, internetdagi bloglar va chet eldagi tanishlarining ta'siri borligini bildirgan. Bu

raqam yoshlar ongining shakllanishida raqamli axborot muhitining o'rnini qanchalik kuchayganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida shuningdek, xorijga chiqishni rejalashtirayotgan yoshlarning 48 foizi o'zini "milliy identiteti saqlanib qoladigan global fuqaro" deb hisoblagani ham diqqatga sazovor natijadir. Bu yoshlarning o'z ona yurtiga nisbatan butunlay befarq emasligini, lekin o'z taraqqiyotini global makonda ko'rayotganini anglatadi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar migratsiyaga faqatgina iqtisodiy yechim sifatida emas, balki ijodiy, intellektual va shaxsiy rivojlanishning muqobil yo'li sifatida qaramoqda. Ularning qarorlari ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar, raqamli axborot ta'siri, o'zini anglash darajasi va ijtimoiy adolat hissi bilan bevosita bog'liqdir (1-diagramma).

1-diagramma. Yoshlar migratsiyasining o'sishi



So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlarining migratsion faolligi sezilarli darajada ortib bormoqda. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan chet elga ishlash maqsadida chiqayotgan yoshlar orasida O'zbekiston fuqarolari eng yuqori ulushni tashkil etgan — umumiy migratsiya oqimining 35 foizidan ortig'i aynan 18–30 yosh oralig'idagi yoshlarga to'g'ri kelgan. Davlat statistika qo'mitasi bergan raqamlarga ko'ra esa, ayni shu yosh guruhida bo'lganlarning 41 foizi xorijga chiqishning asosiy sababi sifatida iqtisodiy muammolar va ish topishdagi qiyinchiliklarni ko'rsatgan. Shu bilan birga, Yoshlar ishlari agentligining 2024-yilgi so'rovinommasida ishtirok etgan yoshlarning 62 foizi chet elda o'qish yoki ishlash niyatida ekanligini bildirgan. Ushbu raqamlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy omillarning ham yoshlar ongiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi va migratsiya masalasi ularning hayotiy strategiyalarida tobora muhim o'rin egallayotganini anglatadi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlar ongining shakllanishi va migratsion qarorlar qabul qilinishi o'rtasida bevosita va bilvosita bog'liqlik mavjud. Olingan ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, yoshlar asosan iqtisodiy, ta'limiy va ijtimoiy motivlarga

asoslangan holda migratsiyani tanlamoqda. Ammo bu qarorlar, birinchi navbatda, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy ong darajasi, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy axborot vositalaridan olgan bilimlariga chambarchas bog'liq. Tadqiqotda qatnashgan respondentlarning 63% dan ortig'i xorijga chiqish istagini bildirgan bo'lsa-da, bu istaklarning ortida har doim ham real imkoniyatlar emas, balki idealistik tasavvurlar, ommaviy axborot vositalarida ko'rilgan muvaffaqiyat hikoyalari va tengdoshlari ta'siri yotadi.

Yoshlar ongini shakllantiruvchi omillar tahlil qilinarikan, oilaviy tarbiya, maktabdagi ijtimoiy psixologik muhit, ommaviy madaniyat va raqamli axborot makoni alohida e'tiborga loyiq bo'ldi. Ayniqsa, TikTok, YouTube va Instagram kabi platformalar yoshlar ongida "muvaffaqiyat" tushunchasini o'zgartirib, uni ko'pincha xorijda yashash, brend kiyimlar, qimmat avtomobillar bilan bog'laydi. Bu esa migratsiyaga nisbatan idealistik, ba'zida esa real bo'lmagan qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqotimizda aniqlangan yana bir muhim jihat – bu yoshlarning migratsiyaga tayyorlik darajasi bilan ularning qarorlaridagi mustahkamlik darajasi orasidagi tafovutdir. Ko'pchilik yoshlar chet elga chiqishni xohlaydi, biroq til bilimi, huquqiy hujjatlar, malaka va madaniy integratsiya darajasiga ega emas. Bu esa, amalda, "potensial migratsion kayfiyat" bilan "real migratsiya" o'rtasida nomutanosiblik borligini ko'rsatadi. Bunday holat ko'pincha norozilik, ruhiy tushkunlik va ijtimoiy beqarorlikka olib keladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkin, migratsiya yoshlar uchun faqat iqtisodiy yechim emas, balki o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy maqom topish vositasi sifatida ham ko'rilmoqda. Ayniqsa, yuqori malakali yoshlar, ya'ni "miya oqimi" deb ataluvchi toifadagi mutaxassislar orasida bu tendensiya kuchli. Bu holatning ikki yoqlama ta'siri bor: bir tomondan, chet ellarda o'z salohiyatini to'liq namoyon qilayotgan yoshlar bor bo'lsa, ikkinchi tomondan, mamlakat ichida intellektual bo'shliq va malakali kadrlarga ehtiyoj kuchaymoqda.

Muhokama davomida diqqatga sazovor jihat – bu ayollar migratsiyasining o'ziga xosligi. So'nggi yillarda ayollar orasida ham xorijga chiqish istagi ortib bormoqda, bu esa yangi ijtimoiy muammolarni – gender tenglik, farzand tarbiyasi, ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotimizda qatnashgan ayol respondentlarning 47% i xorijda o'qish yoki ishlashni xohlashlarini bildirdilar, ammo ular orasida ijtimoiy ruxsat, an'anaviy gender rollari va xavfsizlikka oid xavotirlar yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa, yosh ayollar migratsiyasini ijtimoiy-psixologik va madaniy kontekstda alohida tahlil qilish zaruriyatini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy adabiyotlar bilan hamohang bo'lib, dunyo miqyosida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar – masalan, IOM (Xalqaro migratsiya tashkiloti), UNESCO va UNDP hisobotlarida ham migratsiyaning aynan yoshlar ongiga ta'siri alohida qayd etilgan. Ayniqsa, "umid migratsiyasi" (aspirational migration) konsepsiyasi yoshlar orasida keng tarqalgan bo'lib, bu holat ularning migratsiyani real ehtiyoj emas, balki umidlar bilan bog'liq "kelajak timsoli" sifatida qabul qilishiga olib kelmoqda.

Yakuniy xulosa sifatida, migratsiya va yoshlar ongi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglash uchun multidisiplinar yondashuv talab etiladi: sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va iqtisodiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali yanada mukammal natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Shu asosda, davlat siyosatida faqat migratsion oqimlarni nazorat qilish emas, balki yoshlar ongini to'g'ri shakllantirish, ularning haqiqiy imkoniyatlarini aniqlash va yo'lga qo'yish orqali muammoning ildiziga yechim topish mumkin bo'ladi (2-jadval).

2-jadval. Yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi migratsiya omillari bo'yicha respondentlar fikri (N = 800)

No	Migratsiya omili	Respondentlar	Ulushi
----	------------------	---------------	--------

		soni	(%)
1	Iqtisodiy omillar (ishsizlik, daromad pastligi)	312	39.0%
2	Ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlari	176	22.0%
3	Ijtimoiy muhit va sharoitlar (turmush darajasi, xavfsizlik)	104	13.0%
4	OAV va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri	88	11.0%
5	Oila va do'stlar tavsiyasi	64	8.0%
6	Madaniy va shaxsiy rivojlanish sabablari	40	5.0%
Jami		800	100%

XULOSA. Yoshlar ongi va migratsiya jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu ikki ijtimoiy hodisa bir-birini to'ldirib, ayrim hollarda esa bir-birining oqibatiga aylanadi. Migratsiya nafaqat iqtisodiy va demografik ko'rsatkichlarga, balki ayni damda yoshlarning ijtimoiy tafakkuri, milliy g'ururi va ma'naviy qadriyatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, global axborot oqimlari, internet va ommaviy madaniyat vositalari orqali tashqi olamning ta'siri kuchaygan bir davrda, yoshlar orasida o'z mamlakati haqidagi tasavvurlar va kelajak haqida qaror qabul qilish jarayoni ham migratsion kayfiyat bilan chambarchas bog'langan.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asoslanib aytish mumkinki, 800 nafar respondent orasida migratsiyani rejalashtirayotgan yoshlar soni yuqoriligicha qolmoqda. Ularning asosiy sabab sifatida ko'rsatgan omillari — ish o'rinlarining cheklanganligi, xorijdagi bilim olish imkoniyatlari, iqtisodiy barqarorlik va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish ehtiyoji bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu yoshlar o'z vatani bilan ruhiy bog'liqlikda bo'lishsa-da, ulardagi "tashqi dunyo orzusi" kuchli bo'lib, bu holat ongni o'zgartiradi, qadriyatlarni silkitadi, mafkurani yangilaydi yoki ayrim hollarda yo'qotadi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi zamonaviy yoshlar global migratsion maydonning faol subyektlariga aylangan. Bu esa davlat siyosati, ta'lim tizimi, ma'naviyat targ'iboti va ish bilan ta'minlash mexanizmlarining qayta ko'rib chiqilishini talab etadi. Yoshlar ongi va qarorlariga ta'sir etuvchi tashqi omillarni cheklash emas, balki ularni to'g'ri yo'naltirish, zamonaviy dunyoqarash bilan milliy g'oyalarni uyg'unlashtirish orqali ichki salohiyatni mustahkamlash lozim.

Shuningdek, o'rganilgan tajribalar asosida shuni ham aytish mumkin: migratsiya faqat yo'qotish emas, balki imkoniyat sifatida ham qaralishi mumkin. Agar yoshlar xorijda bilim olib, malaka orttirib, o'z yurtiga qaytib xizmat qilishsa, bu – nafaqat demografik va iqtisodiy foyda, balki ma'naviy yutuq ham bo'ladi. Asosiysi, yoshlar ongida "mamlakatim – mening kelajagim" degan mafkurani shakllantirish zarur. Bunda ota-ona, o'qituvchi, jamiyat, ta'lim va davlat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi kerak.

Shunday qilib, migratsiya va yoshlar ongi orasidagi bog'liqlikni puxta o'rganish, bu jarayonni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish, turli tahlil va monitoring mexanizmlarini joriy etish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, kelajak bugungi yoshlarga bog'liq, ularning qalbida esa nafaqat orzu, balki ishonch, maqsad va Vatanga bo'lgan muhabbat bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. N. Abdurazzokovych va Z. I. Salimova, "Demographic and Migration Processes in Central Asia and Their Impact on Uzbek Ethnogenesis," *Obrazovanie Nauka i Innovatsionnye Idei v Mire*, vol. 55, no. 5, pp. 20–26, Okt. 2024.
2. I. Rasulov, "Analysis of Recent Trends on Uzbek Migrants," *International Journal of Contemporary Sciences (IJCS)*, vol. 1, no. 7, pp. 305–312, May 2024.

3. L. R. Shayusupova va A. A. Khasanov, "Exploring Labor Migration Patterns: A Study on Uzbek Migrant Workers Abroad," *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*, vol. 2, no. 5, pp. 786–789, 2024.
4. I. S. Tulyaganova, "Interest of Uzbek youth in education: trends and prospects for admission to world universities," *Journal of Social Policy, Population Preservation and Reproductivity*, vol. 2, no. 2, 2023.
5. R. Rakhimov va F. Yokubov, "Uzbekistan External Migration: Key Trends and Directions," *Eurasian Research Journal*, vol. 4, no. 1, pp. 27–47, 2022.
6. R. Urinboev va S. Eraliev, "Parallel Worlds of Uzbek Migrants in Russia and Turkey," in *The Political Economy of Non- Western Migration Regimes*, Cham: Palgrave Macmillan, 2022, ch. 3.
7. UNICEF Uzbekistan, *Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects*, UNICEF, 2020.
8. UNICEF Uzbekistan, *Study Report on Effects of Migration on Children of Uzbekistan*, May 2020.
9. S. Nurdinova, "Covid- 19 pandemic and Uzbekistani migrants in Turkey," *International Review of Migration and Refugee Studies*, vol. 2, no. 1, pp. 19–25, Okt. 2021.
10. E. S. Lee, *A Theory of Migration*, in *Demography*, Seattle, USA: University of Washington Press, 1966 (push- pull nazariyasi).
11. J. R. Harris va M. P. Todaro, "Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis," *American Economic Review*, vol. 60, no. 1, pp. 126–142, 1970 (Harris- Todaro modeli).
12. B. Fotouhi va M. G. Rabbat, "Migration in a Small World: A Network Approach to Modeling Immigration Processes," arXiv preprint, 2012.
13. A. Bernard va M. Bell, "Internal migration and education: A cross-national comparison," arXiv preprint, 2018.
14. H. Bauder, *Labor Movement: How Migration Regulates Labor Markets*, Oxford Univ. Press, 2006.
15. Andreas Wimmer va Nina Glick Schiller, "Methodological Nationalism and Beyond: Nation-State Building, Migration and the Social Sciences," *Global Networks*, 2003.